

# SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

## № 6 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

---

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

---

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES



### ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 6 (3)-2023*

### **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

#### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

### **Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

### **Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

### **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Аминов Хамидулла Абдирахимович -</i> БОБУР ДАВРИДАГИ САМАРҚАНД ШАЙХУЛИСЛОМИ .....	9-14
<i>Неъматов Рустам Абдуваид ўғли</i> ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМДА КЕЧГАН ЭТНОМАДАНИЙ ЖАРАЁНЛАР .....	15-23
<i>Raxmanov Zafar Adilovich, Aloxunov Alisher Ahmadjonovich</i> FARG'ONA VODIYSI ARXEOLOGIK YODGORLIK LARI JOYLASHUV QONUNIYATLARI: TAHLIL VA MULOHAZALAR .....	23-32
<i>Мансуров Музаффаржон</i> СОВЕТ ИТТИФОҚИ ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА МАДАНИЙ ТУРИЗМНИНГ ТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ .....	32-42
<i>Mirsoatova Sayyora Turg'unovna, Muhsiddinov Ahrorbek Mamurovich</i> FARG'ONA MEZOLIT VA NEOLIT DAVRI JAMOALARINI O'ZARO MADANIY ALOQALARI XUSUSIDA .....	43-48

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Kurpayanidi Konstantin Ivanovich</i> COVID-19 PANDEMIYASI OQIBATLARINI BARTARAF ETISH SHAROITIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISH MASALALARI .....	49-55
<i>Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li</i> КОМПАНИЯЛАР САМАРАЛИ БОШҚАРУВ ТИЗИМИДА ИЧКИ НАЗОРАТНИНГ О'РНИ .....	56-65
<i>Абдуллаева Зульфия Иззатовна</i> ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПОВЕДЕНИЕ КЛИЕНТОВ ГОСТИНИЦ .....	66-74
<i>Алимова Муниса Юлчиевна</i> ҚИШЛОҚ АҲОЛИСИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР ТАСНИФИ .....	75-80
<i>Абдиева Наргиза Шухратовна</i> ИЧКИ АУДИТДА ФИРИБГАРЛИК РИСКНИ АНИҚЛАШ ВА БАҲОЛАШ .....	81-91
<i>Тўхтасинова Дилдора Раҳмонбердиевна, Ахунова Маърифат Хакимовна</i> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ ҲАЁТ .....	92-97
<i>Tojimatov Izzatbek Ikromali o'g'li</i> BOZOR ISLOHOTLARI SHAROITIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI .....	98-103
<i>Савинова Галина Анатольевна</i> ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ЧЕРТЫ МСФО И НСБУ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОСТАВЛЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ .....	104-108
<i>Qodirov Sardorbek Isroiljon o'g'li</i> QURILISH SANOATI KORXONALARI FAOLIYATINI RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MASALALARI .....	109-114

*Урдушев Хамракул, Мавлянов Мажид, Эшанкулов Сирожиддин, Розиева Гулхаё*  
 АГРОКЛАСТЕРЛАР ВА УЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА РАҚАМЛИ  
 ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ ..... 115-125

*Худаярова Хуршида Абдуназаровна*  
 ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН БАНК ХИЗМАТЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ МУАММОЛАРИ  
 ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ ..... 126-132

### **09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

*Бойдадаев Абдуррохмон Толибжон ўғли*  
 РЕНЕССАНС ДАВРИДА ПАНТЕИСТИК ҚАРАШЛАРНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ..... 133-141

*Аликулов Хусниддин Акбарович*  
 ҲОЗИРГИ ДАВРДА ГЛОБАЛ ЭКОЛОГИК ХАВФ-ХАТАР ВА НАНОТЕХНОЛОГИЯЛАР .142-151

*Саидова Камола Усканбаевна*  
 РЕНЕССАНС ДАВРИ САНЪАТИ – ЖАҲОН МАДАНИЯТИ АЖРАЛМАС ҚИСМИ  
 СИФАТИДА ..... 152-156

*Shirinov Anvar Qanoatovich*  
 MARKAZIY OSIYODA INSON TARAQQIYOTI SOHASIDAGI STRATEGIYALARNING IJTIMOYIY-  
 FALSAFIY TAHLILI ..... 157-162

*Хасанов Бобуржон Хакимович*  
 ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА ОММАВИЙ НОРОЗИЛИК ҲАРАКАТЛАРИНИ ОЛДИНИ  
 ОЛИШНИНГ ҲОЖИВИЙ-МАҲКУРАВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ ..... 163-167

*Xodjayeva Fotima Nabixonovna*  
 AHMAD G'AZZOLIYNING "SAVONIH" ASARI HAQIDA QISQACHA TASNIF .....168-172

### **10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Rustamova Shaxnoza Abduraximovna*  
 MATN, TARJIMA TURLARI VA TARJIMADA TARJIMON MAHORATINING O'RNI ..... 173-180

*Abdulloyeva Kamola Mirxon qizi*  
 MUALLIF DISKURSIV SHAXSI TUSHUNCHASI, STRUKTURASI VA RIVOJLANISH  
 TENDENSIYALARI ..... 181-191

*Turg'unova Fazilat Rustam qizi*  
 PRAGMALINGVISTIKA NUQTAI NAZARIDAN SARLAVHA FUNKTSIYALARI ..... 192-197

*Saidov O'lmas Raxmatovich*  
 O'ZBEK TILI ISH YURITISH TERMINLARINING ETIMOLOGIK TAVSIFI ..... 198-206

*Xuramova Dildora Rahkmonkulovna, Axmedova Firuza Asrorovna*  
 O'ZBEKISTONDA TARJIMONLARNING TARJIMA USLUBINI BERILISHI XUSUSIDA ..... 207-213

*Ataboyev Isroiljon Mirza o'g'li*  
 MADANIYATLARARO SIYOSIY MAKONDA TAJOVUZKOR SALOHİYATGA EGA NUTQ  
 TA'SIRINING USULLARI ..... 214-219

*Murodova Nilufar Karomatovna*  
BLOGGERLIK FAOLIYATIDA MAHORAT MASALALARI ..... 220-224

*Ochilova Hilola Husan qizi*  
XITOIY TILIDA NOMINALIZATSIYA HODISASI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR ..... 225-229

*Kuvonov Zarifjon Maxsiddin o'g'li*  
NEMIS TILIGA CHET TILIDAN O'ZLASHAGAN SO'ZLARNING STRUKTURAL-SEMANTIK  
TADQIQI ..... 230-238

*Yakubova Nilufar Egamberganovna*  
"MULLO NASRIDIN" – TURKIY MATBUOT TARIXIDA MUHIM HODISA ..... 239-245

### **12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

*Абдуллаева Маликабону Эркин қизи*  
ХАЛҚ ТАЪЛИМИДА МАЪМУРИЙ БОШҚАРУВ ВА МЕХНАТ МУНОСАБАТЛАРИ БИЛАН  
БОҒЛИҚ КОРРУПЦИЯВИЙ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ ..... 246-256

### **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Jumayev Rustam G'aniyevich*  
IJTIMOIY-GUMANITAR VA MUTAXASSISLIK FANLARNI INNOVATSION PEDAGOGIK  
TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH ORQALI TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH ..... 257-263

*Бозорова Муслима*  
ЭТНОПЕДАГОГИКА ТАЛАБА-ЁШЛАРДА ЎЗБЕКОНА МИЛЛИЙ ЎЗИГА ХОСЛИКНИ  
ШАКЛЛАНТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА ..... 264-270

*Samadova Sarvinoz Samad qizi*  
YOSHLARNI BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHGA DOIR KOMPETENSIYALAR.... 271-275

*Жўраев Воҳид Тожимаматович*  
РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА ТАЪЛИМ  
МУАССАСАСИНИ БОШҚАРИШ ..... 276-288

*Бозорова Назокаат*  
ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИГА ОИД МАҲАЛЛИЙ МУЗЕЙ МАТЕРИАЛЛАРИ  
ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ТАРБИЯВИЙ-ТАДҚИҚОТ ФАОЛИЯТИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВОСИТАСИ  
СИФАТИДА ..... 289-295

*Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li*  
МАКТАВ О'QUVCHILARINI HUQUQIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH TEKNOLOGIYALARI  
BORASIDA EKSPERIMENT ISHLARINI TASHKIL ETISH VA NATIJALAR TAHLILI ..... 296-301

*Sharipova Sitara Xaydarovna*  
OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA RUS TILI FANINI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIMDAN  
FOYDALANISH ..... 302-307

*Isag'aliyeva Sadafxon Muxammadaminovna*  
BIOLOGIYA O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL USULLARNI  
QO'LLASH ..... 308-312



---

<i>Umarov Abdusamat Abdumalikovich, Xojimurodova Mahliyoхon Kenjavoy qizi</i> OILA VA NIKOH SHAROITIDA AYOLLAR SPORTINING MUAMMOLARI .....	313-317
<i>Sulaymanova Dildora Nazarovna</i> LOYIHAGA ASOSLANGAN O'QITISH TEXNOLOGIYASINING MOHIYATI VA MAZMUNI...318-325	
<i>Ro'ziev Rustam Ro'zimurodovich</i> YONG'IN XAVFSIZLIGI MADANIYATI-ODDIYLIKDAN KOMILLIK SARI .....	326-330
<i>Акрамов Баходир</i> МАЛАКАЛИ ДАРВОЗАБОНЛАРНИ ЎЙИН ДАВОМИДА БАЖАРИЛАДИГАН ТЕХНИК-ТАКТИК ҲАРАКАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ .....	331-336
<i>Anvarjonov Ahrorjon Ahadjon o'g'li</i> BO'LAJAK TARIXCHILARDA TARIX FALSAFASI VA UNING ZAMONAVIY KONSEPSIYALARIGA DOIR BILIMLARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI .....	337-342
<i>Umarov Bekzod Azizovich</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA PEDAGOGLARNING PROFESSIONAL KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI .....	343-349
<i>Бекимбетова Дильфуза Оралбаевна</i> РАЗВИТИЕ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА И ГОСУДАРСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ .....	350-356



08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари

**Мехмоналиев Улугбек Эркинjon о'g'ли,**  
Farg'ona Politexnika Instituti, "Buxgalteriya  
hisobi va audit" kafedراسи assistenti,  
e-mail: [u.mehmonaliyev@ferpi.uz](mailto:u.mehmonaliyev@ferpi.uz)

### **KOMPANIYALAR SAMARALI BOSHQARUV TIZIMIDA ICHKI NAZORATNING O'RNI**

**Annotatsiya.** Zamonaviy kompaniyalarning ichki nazorat tizimi uning istiqboli garovidir zero boshqaruvning samarali tashkil etilishi aniq qarorlar qabul qilish uchun moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risida eng shaffof hamda ishonchli iqtisodiy axborotlar va ma'lumotlarni taqdim etish, shakllantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Yuqori samarali ichki nazorat tizimi bu yo'qotishlarni, kamchiliklarni qoidabuzarliklarni oldindan ko'ra biladi va uni oldini oladi, tarkibiy bo'linmalar tomonidan taqdim etilayotgan axborotlar, hisobotlar obyektivligi hamda ishonchligini tasdiqlaydi, boshqaruvni osonlashtiradi va optimallashtiradi.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy nazorat, ichki nazorat, boshqarish muhiti, xatarlarni baholash, nazorat faoliyati, aloqa va axborot, monitoring.

**Мехмоналиев Улугбек Эркинjon угли,**  
Ферганский политехнический институт,  
ассистент кафедры "Бухгалтерский учет и аудит",

### **РОЛЬ ВНУТРЕННЕГО КОНТРОЛЯ В ЭФФЕКТИВНОЙ СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ КОМПАНИЯМИ**

**Аннотация.** Система внутреннего контроля современных компаний является гарантией перспективы эффективной организации менеджмента, тесно связанного с предоставлением, формированием наиболее прозрачной и достоверной экономической информации и сведений о финансово-хозяйственной деятельности для принятия конкретных решений. Высокоэффективная система внутреннего контроля позволяет предвидеть потери, недостатки, нарушения и предотвращать их, подтверждает объективность и достоверность информации, отчетов, предоставляемых структурными подразделениями, упрощает и оптимизирует управление.

**Ключевые слова:** финансовый контроль, внутренний контроль, управленческая среда, оценка рисков, контрольная деятельность, коммуникация и информация, мониторинг.

**Mekhmonaliyev Ulugbek Erkinjon ugli,**  
Fergana Polytechnic Institute, Department of  
Accounting and Audit, Assistant

### **THE ROLE OF INTERNAL CONTROL IN AN EFFECTIVE COMPANY MANAGEMENT SYSTEM**

**Abstract.** The internal control system of modern companies is a guarantee of the prospects for an effective management organization, closely related to the provision, formation of the most transparent and reliable economic information and information about financial and economic activities for making specific decisions. A highly effective internal control system allows you to anticipate losses, shortcomings, violations and prevent them, confirms the objectivity and reliability of information and reports provided by structural units, simplifies and optimizes management.

**Keywords:** financial control, internal control, management environment, risk assessment, control activities, communication and information, monitoring.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I6Y2023N07>

**Kirish.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi subyektning eng muhim maqsadi bu iqtisodiy faoliyatining samaradorligiga erishish, mumkin bo'lgan maksimal foydani olishga erishishdir, albatta buning muhim omillaridan biri moliyaviy nazoratning o'rni va ahamiyati hisoblanadi. Ushbu turdagi nazorat tufayli ishonchli ma'lumotlar taqdim etiladi, uning moliya tizimining har bir bo'g'inidagi ishlarning haqiqiy holatiga muvofiqligi, muhim boshqaruv qarori qabul qilishda dolzarbligi bilan izohlanadi. Moliyaviy nazorat yordamida korxonada rahbariyati samarali moliyaviy-iqtisodiy boshqaruvni amalga oshirishi mumkin, mulkdorlar esa o'z kapitali rahbarlarini kuzatishi mumkin, bu ularga xususiy investitsiyalar va fuqarolarning shaxsiy mablag'larini iqtisodiyotga jalb qilish uchun ma'lum kafolatlar berish imkonini beradi.

Korxonada moliyaviy nazoratni amalga oshirish, shuningdek, qabul qilingan no standart qarorlarni qabul qilish qonuniylik, samaradorlik hamda moddiy resurslarni sarflashning tejamkorligi tamoyillarining buzilishini aniqlash bilan bog'liq. O'z navbatida samarali ichki nazorat tizimi, tuzatish choralari ko'rish, aybdorlarni javobgarlikka tortish, yetkazilgan zarar uchun kompensatsiya olish va kelajakda bunday huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga imkonini beradi.

Buxgalteriya hisobining asosiy funksiyalaridan biri uning himoya funksiyasi bo'lib, u moliyaviy nazorat uchun asos yaratish orqali mulkdorning manfaatlarini himoya qilishni ta'minlashdan iborat. Biroq, himoya funksiyasini amalga oshirish, nazoratni tashkil etish uchun korxonada yetarli resurslarning mavjudligini talab qiladi.

Ichki nazorat deganda korxonada rahbariyati tomonidan tashkil etilgan va korxonada barcha xodimlar tomonidan xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishda o'z vazifalarini eng samarali bajarish maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tizimi tushuniladi. Bu nafaqat tashkilotning nazorat-audit bo'linmasining ishlashini, nafaqat auditorning, balki korxonaning butun boshqaruv apparatining ishi bo'lganida keng qamrovli nazorat tizimini yaratishni nazarda tutadi.

Ichki moliyaviy nazoratni amalga oshirishning eng muhim sharti buxgalteriya, statistik va operatsion hisobotlarda mavjud bo'lgan moliyaviy ma'lumotlar, shuningdek iqtisodiy faoliyatning turli jihatlarini aks ettiruvchi umumlashtirilgan moliyaviy ko'rsatkichlardir.

Tashkilot ichidagi har qanday faoliyat ikkita tizim doirasida amalga oshiriladi. Ulardan birinchisi belgilangan maqsadlarga erishish uchun qurilgan operatsion (tashkiliy) tizimdir. Ikkinchisi esa-bu operatsion (tashkiliy) tizimga kiradigan boshqaruv tizimi hisoblanadi. U, umumiy olganda, siyosatlar, protseduralar, qoidalar, ko'rsatmalar, byudjetlar, buxgalteriya hisobi va hisobot tizimlaridan iborat. Ushbu tizim oxir-oqibat, korxonaning samarali boshqaruv tizimi orqali uning rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga va umuman kompaniya istiqbolini belgilash hamda kompaniya o'z maqsadlariga erishish ehtimolini oshirishga qaratilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida "nazorat" tushunchasi o'ziga xos yangi ma'nolarni o'z ichiga olmoqda. Ishlab chiqarish

munosabatlari, iqtisodiyot va jamiyatning siyosiy qarashlari, iqtisodiy tuzilishning o'ziga xos xususiyatlari o'zgarishi, nazorat ta'rifi ham o'zgarishiga sabab bo'ldi. Paydo bo'lgan talqinlarning har biri ushbu konsepsiyaning mohiyatini yangicha ochib berdi.

O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"<sup>1</sup>gi yangi tahrirdagi qonuning "45-moddasi. Auditorlar ishi sifatining ichki nazorati" deb nomlanib "Auditorlar ishi sifatining ichki nazorati auditorlik tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan, uning auditorlari va xodimlari tomonidan ushbu Qonun talablariga rioya etilishini ta'minlovchi tartib-taomillarga asoslangan tashkiliy chora-tadbirlar tizimidan iboratdir.

Auditorlar ishi sifatining ichki nazorati auditorlik tashkiloti tomonidan auditorlik faoliyati standartlariga binoan amalga oshiriladi va u auditorlik xizmatlari ko'rsatish chog'idagi majburiy shartdir" [1] deb belgilangan.

Dastlabki davrda nazorat turli xil hujjatlar va hisobotlarning ishonchliligini tekshirish usuli, sifatida talqin qilingan. Bundan tashqari, nazorat ma'muriy qarorlarning bajarilishini nazorat qilish shakli sifatida qabul qilinardi. Rus olimlaridan N. G. Belovning aytishicha, sotsialistik davlatdagi nazoratni partiya va hukumatning iqtisodiy ehtiyojlar uchun bajarilishini doimiy bo'lgan tekshirish bilan taqqoslash mumkin [2; 5 b]. Darhaqiqat o'sha paytda nazorat jamoat tashkilotlari tomonidan ham, maxsus tashkil etilgan apparat tomonidan ham amalga oshirilgan.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti paydo bo'lishi bilan nazorat tushunchasi rejalashtirilgan natijadan chetga chiqish va ularning sabablarini tahlil qilishni o'z ichiga boshladi [12]. Shuni ta'kidlash kerakki, har qanday korxonaning maqsadi xatolar va buzilishlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishga yordam beradigan ichki nazorat tizimini yaratishdan iborat bo'lishi kerak [9].

Hozirgi vaqtda boshqaruv tushunchasi uni boshqaruv va buxgalteriya hisobi, audit va ma'muriy-davlat tizimi nuqtayi nazaridan o'rganish tufayli ko'p qirrali bo'lib qoldi. Kompaniya egasi kompaniya uchun to'g'ri maqsad va vazifalarni belgilashi, qo'shimcha investitsiyalarni izlashi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishi hamda o'z kompaniyasining raqobatbardoshligini oshirishi va kuchli tomonlarini topishi kerak [16].

Boshqaruv jarayoniga kelsak, bu yerda nazorat menejrlarning tizimli va konstruktiv faoliyati, menejmentning asosiy funksiyalaridan biri, boshqaruv jarayonining yakuniy bosqichi, qarorlarni bajarish jarayonida teskari aloqa shakli va boshqalar sifatida talqin etiladi.

Kerakli miqdordagi resurslarning mavjudligi korxonaning moliyaviy farovonligi, ya'ni uning moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyatining shartidir. Korxonada resurslarini boshqarish birinchi navbatda moliyaviy menejment sohasidir [10]. Menejmentda nazorat funksiyasi haqida turli xil qarashlar mavjud [11]. Ba'zi mualliflar nazoratni mustaqil funktsiya deb hisoblashadi, boshqalari nazorat – bu korxonada rahbariyati tomonidan tashkil etilgan va korxonada barcha xodimlar tomonidan xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishda o'z vazifalarini eng samarali bajarish maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tizimi deb hisoblashadi.

Shu o'rinda turli olimlarning "korxonaning ichki nazorat tizimi" tushunchasiga bergan ta'riflarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida" Qonuni, 25.02.2021-yildagi O'RBQ-677-son. <https://lex.uz/docs/-5307886>.

Misol uchun K.B. Ahmadjonov, I.I. Yakubov: “Korxonaning ichki nazorat tizimi — ushbu korxonada o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalarga, shu jumladan, ishonchli moliyaviy axborotni tayyorlash vazifasiga erishishini ta‘minlash maqsadida korxonada tomonidan ishlab chiqilgan barcha qonun-qoidalar, chora-tadbirlar majmuidir” [3; 24 b.] deb ta‘riflaydi.

Aynan shunga yaqin ta‘rifni rus olimi L. V. Sotnikova bildirgan uning fikricha, “Ichki nazorat-bu korxonada rahbariyati tomonidan tashkil yetilgan va korxonada barcha xodimlar biznes operatsiyalarini bajarishda o‘z vazifalarini yeng samarali bajarishlari uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tizimi” [4, 11 b].

V. M. Radionova va V. I. Shleynikov ichki nazoratni xo‘jalik yurituvchi subyekt yoki boshqaruv organining o‘z manfaatlarini ko‘zlab olib borayotgan ishlarini tekshirish va baholash bo‘yicha tashqi ta‘siridan mustaqil faoliyat sifatida ko‘rib chiqadilar [5, 63 b].

Shunisi e‘tiborliki yuqorida keltirilgan “ichki nazorat” ta‘riflar ma‘nosini zamonaviy olimlar fikrlari yaqin, biroq bugungi kunda yangicha yo‘nalish kasb etayotgan bu yo‘nalish ko‘proq boshqaruv elementi sifatida ko‘rilmogda.

Misol uchun iqtisodchi olim A.V. Taranenko, “ichki nazorat-bu iqtisodiy obyektini va joriy holatning me‘yoriy hujjatlar va shartnoma majburiyatlariga muvofiqligini tekshirish uchun zarur bo‘lgan jarayonni kuzatishga qaratilgan korxonani boshqarish elementi” [6; 261 b] deb ta‘riflaydi.


T.Yu. Serebryakovoy: “Ichki nazorat murakkab toifadir, chunki ichki nazorat har qanday tizimga (iqtisodiy, iqtisodiy bo‘lmagan) xosdir, ammo bu tizim aniq boshqaruv tizimi bo‘lishi kerak va u ishlashi kerak” [7; 7 b.].

S.Yu. Rakutko va boshqalar: “Ichki nazorat-bu korxonada rahbariyati tomonidan tashkil etilgan va korxonada barcha xodimlar tomonidan xo‘jalik operatsiyalarini amalga oshirishda o‘z vazifalarini eng samarali bajarish maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tizimi” [8; 15 b].

Yuqoridagilarga asoslanib bizning fikrimizcha, “Ichki nazorat tizimi – bu belgilangan maqsadga minimal xarajat bilan erishishga yordam beruvchi zamonaviy boshqaruv tizimining muhim qismidir” deb qisqacha ta‘riflash to‘g‘ri bo‘ladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning maqsadi ichki nazorat samaradorligini oshirish va uning korxonada boshqaruvidagi rolini baholash, takomillashtirish bo‘yicha xulosalar va takliflar tayyorlashdan iborat bo‘lib, buning uchun korxonaning boshqaruv elementi sifatida ichki nazorat tizimi qiyosiy tahlil qilish, ekspert baholash, kuzatish, induksiya, deduksiya usullardan foydalanib o‘rganildi.

**Tahlil va natijalar.** Ichki nazorat tizimi-bu tashkilotning maqsadlariga erishishni ta‘minlash uchun qabul qilingan ichki hujjatlarga (usullar, qoidalar, protseduralar) muvofiq o‘z faoliyatini ichki nazorat qilish orqali xatarlarni minimallashtirishga qaratilgan tashkiliy tuzilmalar, siyosatlar, protseduralar va harakatlar majmui. Kompaniyaning boshqaruv tizimidagi ichki auditning holati quyidagi rasm yordamida ko‘rsatilishi mumkin.



**1-rasm. Ichki nazorat tizimining elementlari**

Yuqorida keltirilayotgan bu komponentlarning barchasi bir-biriga bog'liq bo'lib, ularning har biri qolgan to'rttasiga ta'sir qiladi va ular yagona mexanizmi hisoblanadi. Buning isboti sifatida har bir elementni alohida ko'rib chiqamiz.

**Boshqarish muhiti** barcha darajadagi menejerlarga asosan tashkilot aktivlaridan foydalanish bilan bog'liq murakkab kompleks boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkon beradigan mos kelmaydigan funksiyalarni ajratishni ta'minlaydi. Bu yerda mos kelmaydigan funksiyalar deganda, har qanday kombinatsiyada bir kishining konsentratsiyasi tasodifiy yoki qasddan xatolarga yo'l qo'yishini oldini olishga yordam beradigan funksiyalar tushuniladi. Bunga quyidagilar kiradi:

- 1) aktivlarga to'g'ridan-to'g'ri kirish;
- 2) aktivlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishga ruxsat;
- 3) biznes operatsiyalarini bevosita amalga oshirish;
- 4) buxgalteriya hisobida xo'jalik operatsiyalarini aks ettirish.

Tashkilotning turli tarkibiy bo'linmalari rahbarlarining nazorat funksiyalarini qat'iy tartibga solish majburiydir, ular o'z vakolatlari doirasida dastlabki hujjatlarni imzolash, xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, elektr energiyasi va mehnat xarajatlarini iste'mol qilish me'yorlariga rioya yetilishini nazorat qilish majburiyatini oladilar. Ushbu talabning bajarilishi nazorat muhitini yaxshilaydi, mansabdor shaxslarning ular imzolagan hujjatlarga muvofiq amalga oshirilgan bitimlarning iqtisodiy va huquqiy asosliligi uchun shaxsiy javobgarligini oshiradi.

Tashkilotda nazorat muhitining samaradorligini belgilaydigan bir qator asosiy omillar mavjud:

- Tashkilot rahbarning halollikgi va axloqiy fazilatlarini;
- Rahbarning lavozim vazifalariga mas'uliyati;
- Rahbarning moliyaviy savodxonligi [15];
- Rahbarning falsafasi va ish uslubi.
- Tashkiliy tuzilma.
- Vakolat va majburiyatlarni taqsimlash.

**Tashkilotning iqtisodiy faoliyati xavfi deganda** uning likvidligini yo'qotishi yoki tashkilot faoliyatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar bilan bog'liq moliyaviy yo'qotishlar (zararlar) paydo bo'lishi tushuniladi.

Xatarlarni baholash buxgalteriya bo'limining samaradorligini, nazorat muhiti va ichki nazorat tizimining mavjudligini tekshirish orqali amalga oshiriladi. **Xavfni baholash**-bu vazifalarni bajarish uchun tegishli xavf turlarini aniqlash va tahlil qilish. Ular ushbu xatarlarni boshqarishda keyingi qarorlarni qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi [13]. Ushbu element uning samaradorligini belgilaydigan quyidagi omillar bilan tavsiflanadi:

- Tashkilot miqyosidagi vazifalarni aniqlash;
- Tashkilotning har bir xodimining shaxsiy faoliyat darajasidagi vazifalarni aniqlash;
- Tashkilotning faoliyatidagi xavflarni aniqlash;
- Xavflarni tahlil qilish.

**Nazorat faoliyati deganda** aniqlangan xavflarning kamaytirish, belgilangan vazifalarni bajarishga salbiy ta'siri ko'rsatayotgan omillarni oldini olish uchun tashkilot tomonidan qo'llaniladigan tuzilma, usul va protseduralar tushunilishi kerak. Nazorat faoliyati rejalashtirish, bajarish va tahlil qilish jarayonlarining ajralmas qismidir. Nazorat faoliyati tashkilotning barcha darajalari va bo'linmalariga taalluqlidir.

Mas'ul xodimlar tavakkalchilikka asoslangan rahbarlik kontekstida nazorat faoliyatiga e'tibor berishlari kerak.

Kutilmagan natijalar yoki g'ayrioddiy tendensiyalarni o'rganish belgilangan maqsadlarga erishish va vazifalarni bajarish qiyin bo'lishi mumkin bo'lgan muayyan holatlarga olib keladi. Shu sababli, bunday tadqiqot natijalari bo'yicha chora ko'rish kerak. Bunday qiyinchiliklarning sabablaridan biri mas'uliyat taqsimotining yetarli emasligi bo'lishi mumkin.

Ushbu protseduraning o'ziga xos xususiyati bitta biznes jarayoni xodimlarining majburiyatlarini taqsimlashdir. Masalan, aktivni sotib olish, tranzaksiyani qayta ishlash va ushbu operatsiyani buxgalteriya tizimlarida ro'yxatdan o'tkazish, to'lovlarni amalga oshirish yoki aktivni olish uchun ruxsatnomalar berish ajratilgan holda amalga oshiriladi, ya'ni, bu harakatlar turli xodimlar tomonidan amalga oshiriladi.

Xodimlar o'rtasidagi ushbu taqsimotlar "kuchlarni cheklash va muvozanatlash"ning samarali tizimining mavjudligini ta'minlashga yordam beradi. Bunday harakatlar ruxsatsiz foydalanish yoki resurslar va buxgalteriya hujjatlarini yo'qotish xavfini kamaytirishga yordam beradi. Muayyan xodimlar resurslar va ma'lumotlarning xavfsizligi va ulardan to'g'ri foydalanish uchun javobgardir. Mavjud resurslarni hisobga olish ma'lumotlari bilan taqqoslash muntazam ravishda amalga oshirilishi kerak.

Barcha nomuvofiqliklar diqqat bilan tahlil qilinishi kerak. Mavjud resurslarni taqqoslash, xatolar, firibgarlik, zarar, noto'g'ri foydalanish, o'g'irlik yoki ruxsatsiz modifikatsiyaga nisbatan zaifligiga bog'liq hisoblanadi. Ushbu yondashuv asosida menejment xodimlar tomonidan o'z vakolatlarini bajarilishini nazorat qiladi.

Nazorat protseduralarini amalga oshirishda erishilgan natijalarni baholash nazoratning zaruriy qismidir, ya'ni xavfli holatlarning oldini olish bo'yicha amalga oshirilgan harakatlarni tahlil qilish va ularning samaradorligini baholash imkoniyati paydo bo'ladi. Bunday choralar vaqti-vaqti bilan amalga oshirilishi kerak [17]. Ular joriy ishlash ko'rsatkichlarini aniqlaydilar va ularning butun tashkilot uchun ham, jismoniy shaxslar uchun ham yetarliligini aniqlaydi.

Ammo mas'uliyatni taqsimlash samaradorligini inkor etadigan holatlar ham mavjud. Bu kelishuv, shuning uchun mas'uliyatni taqsimlash bo'yicha vazifalarni belgilashda rahbariyat ushbu holatlarni ham hisobga olishi kerak. Shu sababli, u kelishuv belgilarini diqqat bilan kuzatishi va xodimlar o'rtasida kelishuv ehtimolini minimallashtirish uchun barcha choralarni ko'rishi kerak.

**Axborot va kommunikatsiya.** Har qanday ishlab chiqarish tashkilotida o'z faoliyati ustidan tegishli nazoratni amalga oshirish uchun ishonchli ma'lumotlar zarur (moliyaviy, moliyaviy bo'lmagan, tashqi va ichki). Rahbariyat xavflarni baholash va kerakli ma'lumotlarni tegishli shaxslarga yetkazish uchun ishonchli ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Rahbariyat uchun tashkilot muvaffaqiyatiga erishishda zarur bo'lgan ma'lumotlar aniqlaydigan va doimiy ravishda boshqaruvchi xodimlarga yetkaziladigan tizim bo'lishi kerak.

**Axborot**-bu hisobotlarni tayyorlash zarur darajadagi tahlil qilish imkoniyatini taqdim etuvchi omil bo'lib, hisobot uchun mas'ul bo'lgan xodimlarga talab bo'yicha maksimal darajada batafsil ma'lumot berishga imkon beradi va shu bilan muhim qarorlarni qabul qilishga yordam beradi.

Bugungi kunning zamonaviy rahbariyati axborotni tarqatishda samarali vositalaridan foydalana oladi, ular orasida "Telegram", "Whatsapp", "Zoom" kabi dasturiy vositalar, an'anaviy uslublarga xos bo'lgan eslatmalar, e'lonlar taxtasi, e'lonlar, elektron pochta vositalari va yig'ilishlarda nutq so'zlashlar bo'lishi mumkin.

Tashkilot axborot tizimlarini boshqarish ushbu tashkilotning umumiy strategik rejasiga asoslangan bo'lishi kerak. Ushbu omil nazoratning muhim tarkibiy qismi, mexanizmi bo'lib, unda yangi axborot texnologiyalar iste'molchilarining manfaatlariga javob beradigan resurs bo'lib xizmat qilishi kerak.

**Monitoring.** Har qanday yaxshi ichki nazorat tizimi tashqi sharoitlarning o'zgarishi tufayli eskirishi mumkin. Shuning uchun, xatarlarni baholash, usul va protseduralarni ishlab chiqish va xodimlarga nazorat choralari to'g'risida ma'lumot berishdan so'ng, menejerlar ichki nazoratning beshinchi elementi – **monitoringni tashkil** qilishlari kerak.

Ma'muriyat boshqaruv tizimining samaradorligini doimiy ravishda kuzatib borishlari kerak. Monitoring yordamida ma'lum vaqt ichida ichki nazorat sifatini baholash mumkin [18]. Doimiy monitoring normal ish operatsiyalarini o'tkazish bilan parallel ravishda amalga oshiriladi va muntazam nazorat va boshqaruv tadbirlarini, qiyosiy tahlilni, ma'lumotni taqqoslashni va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Doimiy monitoring maqsadi tashkilot xodimlariga ichki nazorat uchun mas'ul ekanliklarini va asosiy vazifalari doirasida barcha faoliyat samaradorligini nazorat qilishlari kerakligini eslatishdir. Eng yaxshi usul-vaqti-vaqti bilan o'tkaziladigan nazorat protseduralarining amalga oshirilishidir ya'ni bunda belgilangan rejadan o'zboshimchalik bilan og'ishlar aniqlanadi.

Rahbariyat aniqlangan tafovutlarga katta e'tibor berishi va ularning paydo bo'lish sabablarini aniqlash uchun tegishli choralarni ko'rishi kerak. Bunday tekshiruvlarning muntazamligi, birinchi navbatda, aktivlarining zaifligiga bog'liq bo'ladi.

Ko'rib chiqilgan omillar samarali ichki nazorat tizimini yaratishda hisobga olinishi kerak. Ular tashkilotda yetarli nazorat tizimini tahlil qilish va shakllantirishda rahbariyat tayanishi mumkin bo'lgan boshlang'ich nuqtalardir.



**Xulosa va takliflar.** Tashkilotning barcha ehtiyojlarini qoplaydigan va tashkilotda ishlash jarayoniga yuk bo'lmaydigan shu bilan birga barcha jarayonlar haqida to'liq tasavvur beradigan tizimni shakllantirish juda mashaqqatli vazifa bo'lib, unda tashqi xavflarni xam hisobga olish kerak.

Bundan tashqari, biznes jarayonlarini ichki nazorat orqali samarali tashkil etish mumkin, bunda tashkilot rahbariyati ma'lumotlarning shakllanishida bilvosita ishtirok etishi muhimdir, chunki ishtirokchi jarayoni chuqur his etadi. Kompaniya samarali boshqaruv tizimi uchun nazoratning eng yuqori samaradorligiga erishishda va yaratishda quyidagi asosiy bosqichlar bo'lishi taklif etiladi:

1. Tashkilot faoliyatining ilgari rejalashtirilgan dasturiy maqsadlarini amalda erishilgan natijalar bilan tanqidiy tahlil qilish va taqqoslash.

2. O'zgaruvchan xo'jalik sharoitlariga mos keladigan yangi, tashkilotni rivojlantirish dasturini, shuningdek uning bajarilishini ta'minlaydigan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish va hujjatlashtirish.

3. Tashkilotning mavjud boshqaruv tuzilmasining samaradorligini tahlil qilish va uni sozlash. Ushbu bosqichda tashkiliy tuzilma to'g'risidagi Nizom ishlab chiqiladi, unda har birining ma'muriy bo'ysunishi, faoliyatning asosiy yo'nalishlari, shuningdek bajariladigan funksiyalar ko'rsatilgan holda tashkilotni boshqarishni ta'minlaydigan barcha bo'linmalar tavsiflanadi. Boshqaruv tuzilmalari o'rtasidagi munosabatlar qoidalari, ularning huquqlari va javobgarligi belgilanadi, ular o'rtasida doimiy va moliyaviy resurslar, boshqaruv funksiyalari taqsimlanishi ko'rsatiladi. Bunday hujjatsiz tashkilotning ichki nazorat tizimining barcha bo'g'inlarining aniq ishlashini ta'minlash mumkin emas.

4. Tashkilotning aniq moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarini, aktivlari va majburiyatlarini nazorat qilishning rasmiy namunaviy protseduralarini (standart usullarini) ishlab chiqish uning tarkibiy bo'linmalar mutaxassislari bilan nazorat tadbirlarini o'tkazish bo'yicha munosabatlarini tartibga solishga imkon beradi.

5. Tashkilotning keyingi rivojlanishini hisobga olgan holda ichki nazorat tizimini takomillashtirishning mumkin bo'lgan usullarini aniqlash va dasturiy hujjatlarda aks ettirish.

6. Ichki nazorat tizimini yoki boshqa ixtisoslashtirilgan nazorat blokini (bo'linmasini) tashkil etish, shuningdek u to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish va tasdiqlash.

Bugungi kunda bizning mamlakatimizdagi amaldagi ichki nazorat tizimi asosan tashkilotlarning standartlariga, shuningdek davlat qonunlariga muvofiqligini baholaydi, ularning xulosalari korxonada olib borilayotgan siyosat bo'yicha maslahat xarakteriga ega bo'lishi mumkin. Ushbu xizmatlar faqat tor yo'naltirilgan subyektiv nazoratga qaratilgan, ya'ni faqat yirik kompaniyalar butun faoliyati davomida funksional tahlilni o'tkazishadi, barcha faoliyat sohalarida mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini monitoring va tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Shu sababli, zamonaviy sharoitda ichki nazorat tizimi qayta shakllana boshladi va xarajatlarni kamaytirish, xatarlarni minimallashtirish va istiqbolli tashqi siyosati takomillashtirish uchun yaxshi kooperativ boshqaruv belgisi sifatida ko'rila boshladi.

**Адабиётлар/Литература/References:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. 25.02.2021-yildagi O'RQ-677-son.
2. Белов Н.Г. Контроль и ревизия в сельском хозяйстве. – М.: Агропром, 4-е изд., перераб. и доп., 2006. — 392с.
3. Audit asoslari. Buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / K.B. Ahmadjonov, I.I. Yakubov; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — T.; 2010, — 288 b.
4. Сотникова Л. В. Внутренний контроль и аудит: учебник / ВЗФЭИ. М.: Финстатинформ, 2000. — С. 239.
5. Родионова В. М., Шлейников В. И. Финансовый контроль: учебник. М.: ФБК-ПРЕСС, 2002. — С. 320.
6. Тараненко, А. В. (2019). Теоретические аспекты внутреннего контроля. In СОВРЕМЕННАЯ ЭКОНОМИКА: НАУКА И ОБРАЗОВАНИЕ В XXI ВЕКЕ. ADVANCED SCIENCE AND OPEN INNOVATION. НАУКА НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ: ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ, ИННОВАЦИИ (pp. 199-208).
7. Внутренний контроль и контроллинг : учебное пособие / Т.Ю. Серебрякова, О.А. Бирюкова ; под ред. Т.Ю. Серебряковой. — Москва : ИНФРА-М, 2021. — 238 с.
8. Внутренний аудит и контроль бизнес-процессов : учебное пособие / С.Ю. Ракутько, Е.Ю. Селезнева, О.Г. Житлухина, Е.В. Белик, Е.И. Бережнова, Е.В. Ломоносова, Н.В. Белик. – Владивосток : Издательство Дальневосточного федерального университета, 2021. – 1 CD-ROM ; [157 с.].
9. Qudbiyev, N. T., Ulug'bek Erkinjon, O. G. L., & Mominov, I. L. O. (2022). TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ICHKI NAZORATNING SAMARALI TIZIMI SIFATIDA ICHKI AUDITNING O'RNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 3(1), 449-457.
10. Kudbiev, D., Qudbiyev, N. T., & Imomova, Z. T. Q. (2022). Moliyaviy Hisobotlardan Moliyaviy Menejmentda Foydalanish Masallari. Scientific progress, 3(4), 1030-1037.
11. Davlyatshaev, A. A., & Temirkulov, A. A. (2022). Internationalization of the Educational Process in a Market Economy. Journal of algebraic statistics, 13(3), 3459-3464.
12. Ismanov, I. N., & Moydinov, E. D. (2020). Concept of importance in audit planning and execution. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(7), 381-391.
13. Davlyatova, G. M., & Abdullaeva, C. X. (2019). Systemic principles and regularities of commercial enterprise as a socio-economic system. Экономика и бизнес: теория и практика, (6-1), 94-97.
14. Rakhimovich, F. I., & Rakhimovich, F. H. (2022). The Development of Economic Analysis in Uzbekistan and Some Features in the Digital Economy. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 7, 110-113.
15. Якубов, В. Г. (2022). Теоретические Основы Оценки Стоимости Бизнеса. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 3(12), 28-39.
16. Кучкаров, Б., & Урмонов, Х. (2023). КОМПАНИЯЛАРНИНГ МОЛИЯВИЙ ТО'ЛОВГА ЛАЙОҚАТСИЗЛИГИ ХАВФИНИ АНИҚЛАШ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб

муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(3).

17. Ahmadjonovich, S. D. (2021). Examples Of Business Management Development And Implementation Of International Standards. The American journal of management and economics innovations, 3(06), 40-44.
18. Shokiraliyevich, G. A. I. (2021). Increasing The Income Of The Population And Reducing The Tax Burden As A Key Factor In Improving The Living Standards Of The Population. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(7), 7-10.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 6 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).